

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
"NAVOIY KMK" AJDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY- IQTISODIY KOMPONENTLARI.....	212
Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud	
HUDUDIIY ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NEYRO- RAVSHAN EKONOMETRIK MODELARI: QASHQADARYO VILOYATI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIDAN DALILLAR	219
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOB MEXANIZMLARI	224
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
AUTORSING XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	232
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li	



MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFI	237
Erdonova Maxfuza Mardonovna	
KO'P QAVATLI BINOLARDA LIFT SHAXTASI KONSTRUKSIYASINING SEYSMIK VA DINAMIK YUKLARGA BIRGALIKDAGI TA'SIRINI TAHLIL QILISH	242
Boymirzayev Azizbek Asqarali o'g'li	
ULTRATOVUSH DIAGNOSTIKA ROBOTI UCHUN AVTOMATIK GEL SIQISH TIZIMINI KONSTRUKTIV-TEKNOLOGIK LOYIHALASH VA VIRTUAL TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	249
Nodirbek Ruziyev, Zafar Botirovich Jurayev	
SANOAT AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA ULARNING TAHLILI	255
Sayilxonov Xudoyor Narzullo o'g'li	
SUV RESURSLARI CHEKLANGAN SHAROITDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	263
Sodiqova Nigora Turayevna	
CREDIT PORTFOLIO IN COMMERCIAL BANKS AS A FACTOR IN IMPROVING ASSET QUALITY AND STABILITY	270
Baymuratova Zina Aqilbekovna	
ВЛИЯНИЕ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО БРЕМЕНИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ АКТИВНОСТЬ.....	274
Хакимов Улугбек Абдуллаевич	
KATTA TIL MODELLARI YORDAMIDA DASTURIY TEST SSENARIYLARINI GENERATSIYALASHDA GALLYUTSINATSIYALAR MUAMMOSI VA ULARNI KAMAYTIRISH YONDASHUVLARI.....	280
Matkarimov Bobirjon Erkinboyevich	
INVESTISIYALARNI JALB ETISHDA INVESTISIYA SIYOSATI VA INVESTISIYA MUHITI	286
Sodiqov Maqsudjon Abdolimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	292
Djurayeva Munira Sadilloevna	
QARSHI SHAHRIDA KO'P QAVATLI TURAR-JOY BINOLARINI ISITISHDA IOT TIZIMINI QO'LLASH	298
Raupova O.I.	
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ.....	303
Адилов Шерзот Шамильевич	
FERMER XO'JALIKLARINING INTENSIV RIVOJLANISHIDA INVESTITSION QARORLARNI QABUL QILISHNING KO'P MEZONLI VA RISKKA MOS MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	312
Rashidov Baxadir Yusupovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	317
Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li	



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston tijorat banklarida aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari Markaziy bankning 2025–2026-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. Bank tizimi aktivlari, kreditlari va depozitlari dinamikasi, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari, bank kartalari, POS-terminallar, bankomat va infokiosklar infratuzilmasi baholangan. 2025-yil 1-iyuldan 2026-yil 1-iyulgacha bank tizimi aktivlari 18,0 foiz, kreditlar 11,7 foiz, depozitlar 33,2 foizga oshgani aniqlangan. 2025-yil 1-dekabrda masofaviy bank xizmatlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tishlar 79,3 mln tani, shundan jismoniy shaxslar 77,6 mln tani tashkil etgan. 2026-yil 1-iyul holatiga muomaladagi bank kartalari 74,6 mln dona, POS-terminallar 448,1 ming dona, bankomat va infokiosklar 46,7 ming donaga yetgan. Tadqiqot yakunida aholiga bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari tizimlashtirilib, amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aholi, chakana bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, bank kartalari, depozitlar, kreditlar, raqamli banking, to'lov infratuzilmasi, moliyaviy inklyuziya.

Аннотация. В статье на основе официальных статистических данных Центрального банка за 2025-2026 годы проанализированы современное состояние и тенденции развития банковских услуг населению в коммерческих банках Узбекистана. Рассмотрена динамика активов, кредитов и депозитов банковской системы, дистанционного банковского обслуживания, банковских карт, POS-терминалов, банкоматов и инфокосков. Выявлены ускорение цифровизации, расширение платежной инфраструктуры, рост депозитной базы и усиление роли дистанционных каналов обслуживания.

Ключевые слова: коммерческие банки, население, розничные банковские услуги, дистанционное банковское обслуживание, банковские карты, депозиты, кредиты, цифровой банкинг, платежная инфраструктура, финансовая инклюзия.

Abstract. The article analyzes the current state and development trends of banking services provided to the population by commercial banks in Uzbekistan using official Central Bank statistics for 2025-2026. It examines banking-system assets, loans and deposits, remote-banking registrations, payment cards, POS terminals, ATMs and self-service kiosks. The results indicate rapid digitalization, strong deposit growth, expansion of payment infrastructure and a continuing shift from branch-based services toward remote and ecosystem-based retail banking.

Keywords: commercial banks, population, retail banking, remote banking, bank cards, deposits, loans, digital banking, payment infrastructure, financial inclusion.

KIRISH.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi va aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabi ortishi chakana bank xizmatlari bozorining mazmunan yangi bosqichga o'tishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda bank xizmatining raqobatbardoshligi nafaqat filiallar soni yoki an'anaviy mahsulotlar ko'lami, balki mobil ilova sifati, masofaviy identifikatsiya, tezkor to'lovlar, shaxsiylashtirilgan takliflar, xizmat xavfsizligi va mijoz tajribasi bilan belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini isloh qilishga oid strategik hujjatlarida bank xizmatlari sifatini oshirish, davlat ulushini transformatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va moliyaviy xizmatlar ommabopligini ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu jarayonlar aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning hajmi, tarkibi va yetkazib berish kanallarida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.¹

Maqolaning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning zamonaviy holatini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

rasmiy statistik ko'rsatkichlar asosida baholash, ularning asosiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va kelgusida chakana bank xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Bank xizmatlarining zamonaviy rivojlanishi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda moliyaviy vositachilik, chakana bank biznesi, raqamli transformatsiya va moliyaviy inklyuziya yondashuvlari o'zaro uyg'unlashib bormoqda. F.S. Mishkin bank tizimining jamg'armalarni safarbar qilish, kredit resurslarini taqsimlash va to'lovlarni tashkil etishdagi rolini asoslaydi. J.F. Sinkey esa bank xizmatlari diversifikatsiyasini daromadlilik, risk va mijoz bazasini kengaytirish bilan bog'laydi.²

Raqamli moliya bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda mobil banking, FinTech, API, ma'lumotlar tahlili va platforma modeli bankning mijoz bilan munosabatlarini tubdan o'zgartirayotgani qayd etiladi. Jahon bankining Global Findex tadqiqotlari raqamli to'lovlar va hisobvaraqlardan foydalanish moliyaviy inklyuziyaning muhim omiliga aylanganini ko'rsatadi. Shu sababli bank xizmatlarining zamonaviy holatini baholashda an'anaviy balans ko'rsatkichlari bilan bir qatorda raqamli foydalanish va to'lov infratuzilmasini ham hisobga olish zarur.³ Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari xizmatlarini diversifikatsiya qilish, chakana xizmatlar ko'lamini kengaytirish, mijozlarga yo'naltirilgan bank modelini shakllantirish va raqamli xizmatlarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Biroq 2025-2026-yillardagi tezkor statistik o'zgarishlar bank xizmatlari rivojlanish tendensiyalarini yangi ma'lumotlar asosida muntazam qayta baholashni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotda statistik tahlil, dinamik qatorlar, qiyosiy tahlil, guruhlash, tarkibiy tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik bazani O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank tizimi asosiy ko'rsatkichlari, nisbiy ko'rsatkichlar, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari hamda bank kartalari va to'lov infratuzilmasiga oid rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi. Bank tizimi ko'rsatkichlari bo'yicha 2025-yil 1-iyul va 2026-yil 1-iyul holatlari taqqoslandi. Masofaviy bank xizmatlari bo'yicha eng so'nggi to'liq ochiq banklar kesimidagi ma'lumot sifatida 2025-yil 1-dekabr holati, to'lov infratuzilmasi bo'yicha esa 2026-yil 1-iyul holati qabul qilindi.⁴

O'sish sur'ati $G = ((Y_1/Y_0) - 1) \times 100$ formulasida hisoblandi. Bu yerda Y_0 – bazis davr ko'rsatkichi, Y_1 – joriy davr ko'rsatkichi. Tadqiqotdagi barcha statistik xulosalar rasmiy e'lon qilingan ko'rsatkichlarga asoslanadi; masofaviy bank xizmatlari bo'yicha qayd etilgan foydalanuvchilar soni noyob jismoniy shaxslar soni sifatida talqin qilinmaydi, chunki bir shaxs bir nechta bank tizimida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bank tizimining moliyaviy bazasi aholiga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining muhim institutsional omilidir. 2026-yil 1-iyul holatiga O'zbekiston bank tizimi aktivlari 1 005,8 trln so'mga, kreditlar 642,8 trln so'mga, depozitlar 473,8 trln so'mga yetgan. 2025-yilning mos sanasiga nisbatan aktivlar 18,0 foiz, kreditlar 11,7 foiz va depozitlar 33,2 foizga oshgan. Depozitlarning kreditlarga nisbatan tezroq o'sishi banklarning ichki resurs bazasi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi (1-jadval).⁵

1-jadval

O'zbekiston bank tizimi asosiy ko'rsatkichlarining dinamikasi⁶

Ko'rsatkich	01.07.2025, trln so'm	01.07.2026, trln so'm	O'sish, %	Tahliliy mazmun
Aktivlar	852.2	1005.8	18.0	Bank tizimi moliyaviy ko'lamini kengaytirmoqda
Kreditlar	575.2	642.8	11.7	Kredit xizmatlari hajmi barqaror oshmoqda

2 Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th ed. Pearson, 2022; Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry. Pearson.

3 World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. Washington, D.C., 2025; Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper No. 2021/167; Cevik S. Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 2024/131.

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi asosiy va nisbiy ko'rsatkichlari; masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari; bank kartalari va to'lov infratuzilmasiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar, 2025–2026.


5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on major indicators of commercial banks as of July 1, 2026; Information on relative indicators of banking system: July 1, 2025 – July 1, 2026.

6 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



Depozitlar	355.6	473.8	33.2	Resurs bazasi eng yuqori sur'atda o'smoqda
Kredit/depozit nisbati	162%	136%	-26 p.p.	Depozit bazasining nisbatan tez kengayishi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025–2026-yillarda bank tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarida ijobiy o'sish kuzatilgan. Aktivlar 18,0 %, kreditlar 11,7 %, depozitlar esa 33,2 % ga oshgan. Depozitlarning kreditlarga nisbatan yuqori sur'atda o'sishi natijasida kredit/depozit nisbati 162 % dan 136 % gacha, ya'ni 26 foiz punktga pasaygan. Bu holat banklarning resurs bazasi mustahkamlanib, kreditlashning depozit manbalari bilan ta'minlanish darajasi yaxshilanayotganini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston bank tizimi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁷

Bank tizimida davlat ulushi mavjud banklar hamon aktivlar va kreditlarning katta qismini shakllantirmoqda. 2026-yil 1-iyulda davlat ulushi mavjud banklar aktivlarning 62 foizi va kreditlarning 66 foiziga ega bo'lgan, depozitlardagi ulushi esa 52 foizni tashkil etgan. Boshqa banklar depozitlar bozorida nisbatan yuqori raqobatbardoshlik ko'rsatmoqda. Bu holat aholiga xizmat ko'rsatishda xususiy va raqamli banklarning roli kuchayib borayotganini bilvosita ko'rsatadi (2-jadval).⁸

2-jadval

Bank tizimi tarkibida davlat ulushi mavjud va boshqa banklarning o'rni, 01.07.2026⁹

Ko'rsatkich	Bank tizimi	Davlat ulushi mavjud banklar	Boshqa banklar	Davlat banklari ulushi
Aktivlar, trln so'm	1 005.8	627.9	377.9	62%
Kreditlar, trln so'm	642.8	422.3	220.6	66%
Depozitlar, trln so'm	473.8	246.3	227.4	52%
Kredit/depozit nisbati	136%	171%	97%	—

Aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning eng muhim tendensiyalaridan biri masofaviy bankingning ommalashishidir. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-dekabr holatida masofaviy bank hisobvaraqlarini boshqarish tizimlarida jami 79,33 mln ro'yxatdan o'tish qayd etilgan bo'lib, shundan 77,64 mln tasi jismoniy

7 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on relative indicators of banking system: July 1, 2025 - July 1, 2026. Toshkent, 2026.

9 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, bank tizimining nisbiy ko'rsatkichlari, 01.07.2026.

shaxslarga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkich bank xizmatlarining filialdan mobil va internet kanallariga ko'chib borayotganini yaqqol ifodalaydi (3-jadval).¹⁰

3-jadval

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari, 01.12.2025¹¹

Ko'rsatkich	Miqdor	Jami tarkibidagi ulushi	Izoh
Jismoniy shaxslar	77.64 mln	97.9%	Chakana masofaviy xizmatlarning asosiy segmenti
Yuridik shaxslar va YTT	1.69 mln	2.1%	Biznes segmenti
Jami	79.33 mln	100%	Banklar bo'yicha ro'yxatdan o'tishlar yig'indisi

Banklar kesimida masofaviy xizmatlardan foydalanish darajasi sezilarli farqlanadi. 2025-yil 1-dekabrda Xalq bankida jismoniy shaxslar bo'yicha 8,50 mln, Uzum bankda 7,27 mln, TBC bankda 6,74 mln, Aloqabankda 6,58 mln va O'zsanoatqurilishbankda 6,31 mln ro'yxatdan o'tish qayd etilgan. Mazkur natijalar an'anaviy yirik banklar bilan bir qatorda raqamli biznes modeliga tayangan banklarning ham chakana segmentda tez sur'atda mijoz qamrovini kengaytirayotganini ko'rsatadi.¹² Ikkinchi muhim tendensiya - to'lov infratuzilmasining kengayishi. 2026-yil 1-iyul holatiga muomaladagi bank kartalari 74,61 mln donani, o'rnatilgan POS-terminallar 448,12 ming donani, bankomat va infokiosklar 46,68 ming donani tashkil etgan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida POS va E-POS terminallari orqali 322,47 trln so'mlik tushum amalga oshirilgan. Bu aholining kundalik moliyaviy operatsiyalarida naqdsiz to'lov vositalari ustunligi ortib borayotganidan dalolat beradi (4-jadval).¹³

4-jadval

Aholiga bank xizmatlari to'lov infratuzilmasining zamonaviy holati¹⁴

Ko'rsatkich	01.07.2026 holati	Iqtisodiy mazmun
Muomaladagi bank kartalari	74.61 mln dona	Aholining naqdsiz to'lov vositalari bilan qamrovi
POS-terminallar	448.1 ming dona	Savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarida to'lov imkoniyati
ATM va infokiosklar	46.7 ming dona	Naqd va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish infratuzilmasi
POS/E-POS tushumlari, 2026 I yarim yillik	322.47 trln so'm	Naqdsiz hisob-kitoblar iqtisodiy faolligi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2026-yil 1-iyul holatiga O'zbekistonda aholiga xizmat ko'rsatish to'lov infratuzilmasi sezilarli darajada kengaygan. Muomaladagi bank kartalari 74,61 mln donaga yetgani naqdsiz to'lov vositalarining aholi orasida keng tarqalganini ko'rsatadi. POS-terminallar sonining 448,1 ming donani tashkil etishi savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarida elektron to'lov imkoniyatlarini oshirgan bo'lsa, 46,7 mingta ATM va infokiosklar aholining naqd va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish operatsiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirgan. 2026-yilning birinchi yarim yilligida POS/E-POS orqali 322,47 trln so'mlik tushum qayd etilgani esa naqdsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy faollikdagi roli tobora ortib borayotganini ko'rsatadi (2-rasm).


10 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Users of remote bank account management systems as of December 1, 2025. Toshkent, 2025.

11 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar 2025-yil 1-dekabr holatiga. 17.12.2025. [Markaziy bank rasmiy manbasi](#)

12 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Users of remote bank account management systems as of December 1, 2025. Banklar kesimidagi rasmiy ma'lumotlar.

13 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information about issued banking cards, POS-terminals, ATMs and Self-Service Kiosks as of July 1, 2026. Toshkent, 2026.

14 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar 2025-yil 1-dekabr holatiga. 17.12.2025. [Markaziy bank rasmiy manbasi](#)



2-rasm. Aholiga xizmat ko'rsatish to'lov infratuzilmasining asosiy ko'rsatkichlari¹⁵

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TIZIMLASHTIRISH.

Birinci tendensiya - bank xizmatlarining raqamli kanallarga ko'chishi. Masofaviy bank xizmatlarida jismoniy shaxslar ulushining qariyb 98 foizga yetishi chakana bankingning asosiy aloqa nuqtasi mobil va internet kanallariga aylanganini ko'rsatadi.¹⁶

Ikkinchi tendensiya - depozit bazasining tez kengayishi. 2025-yil iyulidan 2026-yil iyuligacha depozitlarning 33,2 foizga o'sishi banklarga aholiga kredit, to'lov va boshqa xizmatlarni moliyalashtirish uchun barqarorroq ichki resurs bazasini yaratadi.

Uchinchi tendensiya - raqamli banklar va platforma modellarining kuchayishi. Ayrim raqamli banklarda jismoniy shaxslar bo'yicha masofaviy foydalanuvchilar sonining millionlab ko'rsatkichlarga yetishi balans hajmi bilan mijoz qamrovi o'rtasidagi an'anaviy bog'liqlikni o'zgartirmoqda.

To'rtinchi tendensiya - naqdsiz to'lov ekotizimining kengayishi. Bank kartalari, E-POS, mobil to'lovlar va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalari birgalikda aholiga 24/7 formatdagi xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshirmoqda.

Beshinchi tendensiya - banklararo raqobatning xizmat sifati va mijoz tajribasi maydoniga ko'chishi. Kelgusida banklar uchun foydalanuvchilar sonining o'zi emas, balki faol foydalanuvchi ulushi, tranzaksiya chastotasi, mijozni ushlab qolish, NPS/CSI, xizmat tezligi va kiberxavfsizlik ko'rsatkichlari muhimroq bo'ladi.

ASOSIY ILMIY NATIJALAR

1. 2025-2026-yillarda O'zbekiston bank tizimida aholiga xizmat ko'rsatishning moliyaviy bazasi sezilarli kengaygani, ayniqsa depozitlar o'sishi aktiv va kreditlar o'sishidan yuqori bo'lgani aniqlandi.

2. Masofaviy bank xizmatlari tarkibida jismoniy shaxslar mutlaq ustun segmentga aylangani va bu holat chakana xizmatlarning raqamli kanalga tizimli ko'chishini ifodalashi asoslandi.

3. Raqamli banklar va ekotizim banklarida mijoz qamrovining tez o'sishi chakana bankingda bankning balans hajmidan tashqari texnologik platforma va mijoz tajribasi ham asosiy raqobat omiliga aylanayotganini ko'rsatdi.

4. Bank kartalari, POS-terminallar va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalari ko'lamining kengayishi aholiga xizmat ko'rsatishning fizik-filial modelidan ko'p kanalli va masofaviy modelga o'tishini tezlashtirayotgani aniqlandi.

5. Aholiga bank xizmatlari rivojlanishini baholashda an'anaviy hajm ko'rsatkichlarini faol raqamli foydalanuvchilar, tranzaksiya intensivligi, xizmat sifati, retention, CSI/NPS va xavfsizlik indikatorlari bilan to'ldirish zarurligi taklif etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'tkazilgan tahlil O'zbekiston tijorat banklarida aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar jadal raqamli transformatsiya

¹⁵ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining masofaviy bank xizmatlari b'uyicha 2025-yil 1-dekabr holatidagi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif xulosasi.

bosqichida ekanini ko'rsatdi. Bank tizimi aktivlari va ayniqsa depozit bazasining o'sishi chakana xizmatlarni kengaytirish uchun moliyaviy zamin yaratmoqda. Masofaviy bank xizmatlari, bank kartalari va elektron to'lov infratuzilmasining katta ko'lamga yetishi bank va mijoz o'rtasidagi aloqaning asosiy qismi raqamli muhitga ko'chayotganini tasdiqlaydi.

Birinchidan, tijorat banklarida masofaviy xizmatlar samaradorligini baholashda oddiy ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar sonidan faol oylik foydalanuvchilar (MAU), tranzaksiya chastotasi, raqamli savdo ulushi va mijozni ushlab qolish ko'rsatkichlariga o'tish lozim.

Ikkinchidan, depozit bazasining tez o'sishidan foydalanib, aholiga mo'ljallangan jamg'arma, mikroqarz, ipoteka, to'lov va investitsiya mahsulotlarini yagona mobil ekotizimda integratsiyalash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, banklar raqamli xizmatlar raqobatida personalizatsiya, sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar, masofaviy identifikatsiya, Open Banking va API integratsiyalarini rivojlantirishi, shu bilan birga kiberxavfsizlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni ustuvor saqlashi zarur.

To'rtinchidan, Markaziy bank tomonidan banklar kesimida faol raqamli foydalanuvchilar, mobil tranzaksiyalar hajmi, raqamli kredit va depozit savdolari ulushi hamda xizmat sifati ko'rsatkichlarini muntazam e'lon qilish ilmiy tahlil va bozor shaffofligini oshiradi.

Beshinchidan, hududlar va aholi guruhlari kesimida moliyaviy inklyuziya darajasini o'rganish, raqamli xizmatlardan foydalanishdagi tafovutlarni aniqlash va bank mahsulotlarini demografik segmentlarga moslashtirish chakana xizmatlarning keyingi rivojlanish bosqichi bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on major indicators of commercial banks as of July 1, 2026. Toshkent, 2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on relative indicators of banking system: July 1, 2025 – July 1, 2026. Toshkent, 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Users of remote bank account management systems as of December 1, 2025. Toshkent, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information about issued banking cards, POS-terminals, ATMs and Self-Service Kiosks as of July 1, 2026. Toshkent, 2026.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4811025>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
7. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th ed. Pearson, 2022.
8. Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry. Pearson.
9. World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. Washington, D.C., 2025.
10. Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper No. 2021/167.
11. Cevik S. Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 2024/131.
12. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
13. Mamadiyarov Z.A., Maxmudova M. va boshqalar. Bank ishi. Toshkent, 2021.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100